Xorijiy adabiyotda islomiy moliyaning nazariy negizini yoritishda M. U. Chapraning ishlari muhim o'rin tutadi. Olim foiz (riba)ni man etish nafaqat diniy taqiqdandan, balki real iqtisodiy adolat va resurslarni samarali taqsimlash zaruratidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi va foyda-zararni taqsimlash (PLS) mexanizmini bunday adolatni ta'minlovchi asosiy vosita sifatida ko'radi [11; 23-b.]. Z. Iqbal va A. Mirakhor o'zlarining ishida yanada amaliy yondashuvni qo'llab, islomiy moliya institutlarining barqarorligi ularning real aktivlar bilan ta'minlanganligi va tavakkalchilikni hamkorlik asosida taqsimlash tamoyiliga rioya qilish darajasiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, ular ikki tizimli (dual banking) modelni islomiy va an'anaviy moliya institutlarining parallel rivojlanishi uchun maqbul yo'l sifatida tavsiya qiladilar [9; 47-b.]. Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB)ning hisobotida esa nazariy tahlildan ko'ra ko'proq amaldagi tendensiyalarga urg'u berilib, global islomiy moliya sanoatining yuqori o'sish sur'atlari, ayniqsa, banking segmentining ustunligi statistik ma'lumotlar asosida asoslab beriladi [8; 12-b.].

Ushbu xorijiy nazariy meros mahalliy tadqiqotchilar tomonidan O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan tarzda rivojlantirilgan. Qozog'iston Respublikasi vakili, Islom taraqqiyot bankining sobiq mansabkori E. Baydaulet o'zining mahalliy nashr etilgan asarida islomiy moliyalashtirishni joriy etish uchun avvalo mos huquqiy-institutsional baza shakllantirilishi zarurligini, aks holda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini taklif etish imkoniyati cheklanib qolishini ta'kidlaydi [12; 5-qism]. A. Собопов o'z tadqiqotida bir qadam oldinga o'tib, O'zbekistonda islom bankchiligini joriy etishning nazariy-huquqiy asoslarini xorijiy mamlakatlar (xususan, Malayziya va Turkiya) tajribasi bilan qiyosiy tahlil qiladi va tasviriy statistika, guruhlash, dinamik hamda SWOT-tahlil usullaridan foydalanib, mamlakatimiz uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi [13; 2-b.].

Muallifning fikricha, yuqorida keltirilgan ishlarning har biri o'ziga xos qiymatga ega, biroq ularning birortasi ham mazkur tadqiqotda qo'yilgan vazifani to'liq qamrab olmaydi. Chapra, Iqbal va Mirakhorning nazariy asoslari islomiy moliyaning "nima uchun" zarur ekanligini tushuntirishga xizmat qiladi, biroq ular O'zbekistondagi institutsional o'ziga xosliklarni — xususan, islomiy moliyalashtirish nobank kredit tashkilotlari orqali boshlanib, keyinchalik bank sektoriga kirib kelayotgan o'ziga xos yo'lni — hisobga olmaydi. Baydaulet va Собоповning ishlari esa O'zbekiston kontekstiga yaqinroq bo'lsa-da, ular 2022–2024-yillardagi dastlabki institutsional bosqichni tasvirlaydi va 2026-yildagi tub islohotlar — xususan, "Islomiy bank faoliyatini joriy etish to'g'risida"gi Qonun va undan keyingi statistik dinamikani — qamrab olmaydi. Demak, mavjud adabiyotda huquqiy-institutsional evolyutsiyani so'nggi qonunchilik o'zgarishlari bilan birga, 2025–2026-yillardagi statistik ko'rsatkichlar asosida bozorning amaldagi tarkibiy holatini (mahsulot, tashkilot, mijoz va hudud kesimida) bir butun tarzda tahlil qiluvchi tadqiqotlar yetishmaydi. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni nazariy asoslarni amaliy-statistik tahlil bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagi usullardan foydalanildi: huquqiy-institutsional tahlil (qonun hujjatlari evolyutsiyasini xronologik tartibda o'rganish), tasviriy statistika va dinamik tahlil (Markaziy bankning 2025–2026-yillardagi rasmiy ma'lumotlari asosida), tarkibiy (struktura) tahlil mahsulot turlari, tashkilotlar, mijozlar toifalari va hududlar kesimida, shuningdek, bozor kontsentratsiyasini baholash uchun Herfindahl–Hirschman indeksi qo'llanildi. Bunday kompleks metodologik yondashuv xorijiy adabiyotdagi nazariy mezonlarni (masalan, PLS tamoyili) mahalliy statistik ma'lumotlar bilan bog'lab tahlil qilish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dastlabki bosqich (2018–2022-yillar). O'zbekistonda islomiy moliya infratuzilmasini yaratishga oid birinchi rasmiy harakat 2018-yilga to'g'ri keladi: o'shanda "O'zbekistonda Respublikasida islom bank ishi va moliyasi infratuzilmasini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori loyihasi ommaviy muhokamaga qo'yilgan edi¹. Loyihada foizlar (riba) shaklidagi to'lovlarni taqiqlash, foyda va zararni hamkorlik ulushlariga muvofiq taqsimlash, takaful (islomiy sug'urta), ijara (lizing) va sukuk (qimmatli qog'ozlar) bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish ko'zda tutilgan edi. Biroq mutaxassislar fikriga ko'ra, o'sha davrda infratuzilmaning yo'qligi, me'yoriy-huquqiy bazaning shakllanmaganligi, omonatlarni kafolatlash mexanizmining mavjud emasligi, fiskal to'siqlar va aholining moliyaviy savodxonligi pastligi sabablari bilan ushbu hujjat o'z vaqtida qabul qilinmadi.

Amaliy siljish 2022-yilda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-765-son² Qonun qabul qilinishi bilan boshlandi. Mazkur qonunga ko'ra, mikromoliya tashkilotlari, lombardlar va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari nobank kredit tashkilotlari toifasiga kiritildi va ularga, jumladan, islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatish huquqi berildi. Bu mamlakat amaldagi qonunchiligida "islomiy moliyalashtirish" tushunchasining birinchi marta nobank moliya institutlari kontekstida mustahkamlanishi edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son³ qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-364-son⁴ qaror bilan mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatishning normativ-huquqiy bazasini 2024-yilga qadar ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Ushbu topshiriq ijrosi natijasida 2024-yil iyul oyida mikromoliya tashkilotlariga islomiy shartlar asosida xizmat ko'rsatishga rasman ruxsat berildi. Markaziy bankning tegishli nizomiga muvofiq, bunday xizmatlarni ko'rsatish uchun mikromoliya tashkilotlari maxsus kengash tuzishi va islomiy operatsiyalar bo'yicha alohida buxgalteriya hisobini yuritishi shart qilib qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-132-son⁵ Farmoni islomiy moliya sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan bir qatorda, 2024-yil 24-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashi (IFSB)ga a'zo bo'ldi, bu esa mamlakatning islomiy moliya sohasidagi xalqaro standartlarga integratsiyasi yo'lidagi muhim institutsional qadam bo'ldi.

2025-yil sentyabr oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qonun loyihasini birinchi o'qishda ma'qulladi. Markaziy bank rahbariyatining ma'lumotlariga ko'ra, ushbu loyiha Prezidentning 2023-yil 5-sentyabrdagi PQ-292-son qarori va 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son Farsmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, Islom taraqqiyot bankining grant yordami asosida, xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqildi. 2025-yil noyabr oyida Qonunchilik palatasi loyihani yakuniy tasdiqlab, Senatga yubordi, 2026-yil fevral oyida esa Senat tomonidan ma'qullandi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi⁶ Qonunini imzoladi. Qonun rasman e'lon qilingan kundan boshlab uch oy o'tgach, ya'ni 2026-yil 28-iyundan kuchga kiradi. Qonun asosida Soliq va

1 <https://kun.uz/news/2018/05/16/uzbekistonda-islom-bank-isi-va-moliyasi-infratuzilmasi-aratiladi>

2 <https://lex.uz/docs/-5972411>

3 <https://lex.uz/uz/docs/-6591947>

4 <https://lex.uz/docs/-6658627>

5 <https://www.lex.uz/uz/docs/-7089547>

6 <https://lex.uz/docs/-8099403>



Fuqarolik kodekslari, shuningdek, 7 ta amaldagi qonunga, jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-apreldagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi 216-l-son⁷ Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Yangilangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq, islomiy moliyalashtirish birinchi marta "O'zbekiston" bankida 2027-yilda joriy etilishi, 2030-yilga qadar esa kamida 3 ta tijorat bankida islom moliyasi xizmatlari yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. Markaziy bank rahbariyatining bayonotlariga ko'ra, 2030-yilga borib mamlakatda 10 tadan ortiq islomiy bank yoki "islomiy darcha" faoliyat yuritishi, shuningdek, 2026–2030-yillarda taxminan 1 mlrd AQSh dollari miqdorida qo'shimcha investitsiya va depozitlar jalb qilinishi kutilmoqda. Hozirgi kunda 10 tadan ortiq bank islomiy moliyalashtirish vositalarini joriy etishga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Yuqorida tavsiflangan huquqiy-institutsional evolyutsiya bosqichlari 1-jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishning huquqiy-institutsional rivojlanish bosqichlari⁸ (2018-2026)

No	Davr	Hujjat / voqea	Mazmuni
1	2018-yil	Prezident qarori loyihasi (qabul qilinmagan)	Islom banki va moliya infratuzilmasini yaratish bo'yicha dastlabki taklif; institutsional tayyorgarlik yetarli emasligi sababli qabul qilinmadi
2	2022-yil	"Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonun	MFI, lombard va ipoteka qayta moliyalashtirish tashkilotlariga islomiy moliyalashtirish xizmati ko'rsatish huquqi qonunan mustahkamlandi
3	2023-yil, 5-sentyabr	PQ-292-son qaror	Islom moliyasi yo'nalishidagi islohotlarni boshlash vazifasi belgilandi
4	2023-yil, 10-noyabr	PQ-364-son qaror	MFI uchun islomiy moliyalashtirish normativ bazasini 2024-yilgacha ishlab chiqish topshirildi
5	2024-yil, iyul	Markaziy bank nizomi	MFI'larga islomiy shartlarda xizmat ko'rsatishga ruxsat (maxsus kengash + alohida hisob)
6	2024-yil, 30-avgust	PF-132-son farmon	Islom moliyasi islohotlarini chuqurlashtirish chora-tadbirlari
7	2024-yil, 24-dekabr	Markaziy bank - IFSB a'zoligi	O'zbekiston Markaziy banki Islom Moliyaviy Xizmatlar Kengashiga a'zo bo'ldi
8	2025-yil, sentyabr-noyabr	Qonun loyihasi	Qonunchilik palatasida ma'qullanib, Senatga yuborildi
9	2026-yil, fevral	Senat ma'qullovi	Qonun loyihasi Senat tomonidan ma'qullandi
10	2026-yil, 27-mart	"Islomiy bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun	Prezident imzoladi; 2026-yil 28-iyundan kuchga kiradi

Markaziy bankning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil I choragida mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirish xizmatlari umumiy hajmi 11,2 mlrd so'mni tashkil etdi. 2025-yilning mos davrida bu ko'rsatkich 1,4 mlrd so'm bo'lgan, ya'ni bir yil ichida hajm qariyb 8 martaga oshgan. Mahsulot turlari kesimidagi dinamika, jumladan, 2-bo'limda keltirilgan hisoblash-analitik usul asosida baholangan 2025-yil I chorak ko'rsatkichlari, 2-jadval hamda 1–2-rasmlarda taqdim etilgan (2-jadval).

2-jadval. Mahsulot turlari bo'yicha islomiy moliyalashtirish hajmi va dinamikasi (* - 2025-yil I chorak ko'rsatkichlari rasmiy o'sish koeffitsiyentlari asosida hisoblangan)⁹

Mahsulot turi	2025-I chorak, mlrd so'm*	2026-I chorak, mlrd so'm	2026 ulushi, %	O'sish, marta
Murobaha	0,39	7,7	69,0	~20
Muzoraba	1,01	2,1	19,0	~2,1
Islomiy ijara	0,005	1,4	12,0	~300
Mushoraka	0,00	0,0	0,0	-
Jami	1,40	11,2	100,0	~8,0


Tarkibiy tahlil shuni ko'rsatadiki, 2026-yil I choragida "Murobaha" mahsuloti islomiy moliyalashtirish bozorining 69 foizini (7,7 mlrd so'm) tashkil etib, ustun o'rinni egallaydi. Bu, bir tomondan, "Murobaha"

7 <https://lex.uz/acts/-2681>

8 Manba: muallif ishlanmasi

9 Manba: muallif ishlanmasi


mahsulotining tovar-moddiy boyliklarni nasiyaga sotish shaklida nisbatan sodda amalga oshirilishi va mikromoliya tashkilotlari amaliyotida tezroq joriy etilishi bilan izohlanadi. Ikkinchi tomondan, “Islomiy ijara” mahsulotining 300 martalik o’sishi (taxminan 4,7 mlrd so’mdan 1,4 mlrd so’mgacha) mahsulotlar portfelining tobora diversifikatsiyalashayotganidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. Mahsulot turlari bo'yicha islomiy moliyalashtirish hajmi (2025 va 2026-yil I choraklari, log shkala)¹⁰

“Muzoraba” mahsuloti bo'yicha o'sish nisbatan tekisroq (taxminan 2,1 marta) bo'lib, bu mahsulotning 2025-yil boshidanoq nisbatan faol qo'llanilganini ko'rsatadi. “Mushoraka” mahsuloti esa 2026-yil I choragida hali amaliyotda qo'llanilmagan. Bu foyda va zararni hamkorlik ulushlariga muvofiq taqsimlashga asoslangan ushbu murakkab mexanizmni joriy etish uchun qo'shimcha institutsional tayyorgarlik va tavakkalchilikni boshqarish vositalari talab etilishini ko'rsatadi (2-rasm).

2-rasm. 2026-yil I choragida islomiy moliyalashtirish xizmatlari tarkibi (mahsulot turlari bo'yicha, %)



2-rasm. 2026-yil I choragida islomiy moliyalashtirish xizmatlari tarkibi (mahsulot turlari bo'yicha, %)¹¹

2026-yil I choragida islomiy moliyalashtirish xizmatlarining barcha hajmi atigi 4 ta mikromoliya tashkiloti hissasiga to'g'ri keldi (3-jadval, 3-rasm).

3-jadval. Mikromoliya tashkilotlari kesimida islomiy moliyalashtirish hajmi, 2026-yil I chora¹²

Tashkilot	Hajm, mlrd so'm	Ulush, %
“Apex Moliya” MMT	8,4	75,0
“Ayol” MMT	2,1	18,8
“Enterprise Finance” MMT	0,67	6,0
“Biznesni rivojlantirish” tashkiloti	0,009	0,08
Jami	11,18	100,0


¹⁰ Manba: muallif ishlanmasi

¹¹ Manba: muallif ishlanmasi

¹² Manba: muallif ishlanmasi



3-rasm. Mikromoliya tashkilotlari kesimida islomiy moliyalashtirish hajmi, 2026-yil I chorak



3-rasm. Mikromoliya tashkilotlari kesimida islomiy moliyalashtirish hajmi, 2026-yil I chorak (log shkala)¹³

Bozor tarkibi yuqori darajadagi konsentratsiyaga ega ekanligini ko'rsatadi: yetakchi tashkilot "Apex Moliya" MMT bozorning 75 foizini nazorat qiladi. Bozor konsentratsiyasini son jihatdan baholash uchun Herfindahl–Hirschman indeksidan (HHI) foydalanildi. U har bir ishtirokchining foiz ulushi kvadratlari yig'indisi sifatida hisoblanadi: $HHI = 75^2 + 18,8^2 + 6^2 + 0,08^2 \approx 6014$ ball. Xalqaro amaliyotda qabul qilingan mezonlarga ko'ra, HHI 2500 balldan yuqori bo'lgan bozorlar yuqori darajada konsentratsiyalangan hisoblanadi. Demak, islomiy moliyalashtirish segmentidagi 6014 ballik ko'rsatkich ushbu chegaradan sezilarli darajada yuqori. Bunday holat, "Apex Moliya" MMTning ushbu yo'nalishda sezilarli darajada ilgarilab ketganidan dalolat beradi.

2026-yil yanvar–mart oylarida ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirish xizmatlarida yuridik shaxslar ulushi 46 foizni (5,2 mlrd so'm) tashkil etdi. Jismoniy shaxslar hissasiga 2,9 mlrd so'm (26 foiz), yakka tartibdagi tadbirkorlar hissasiga esa 3,1 mlrd so'm (28 foiz) to'g'ri keldi (4-jadval).

4-jadval. Islomiy moliyalashtirish xizmatlarining mijozlar toifalari bo'yicha taqsimoti, 2026-yil I chorak¹⁴

Mijozlar toifasi	Hajm, mlrd so'm	Ulush, %
Yuridik shaxslar	5,2	46
Yakka tartibdagi tadbirkorlar	3,1	28
Jismoniy shaxslar	2,9	26
Jami	11,2	100

Hududlar kesimida xizmatlarning asosiy qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, bu yerda jami 10,6 mlrd so'mlik islomiy moliyalashtirish xizmatlari ko'rsatildi, bu jami hajmning 94 foizini tashkil etdi. Namangan viloyatida esa 670 mln so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, uning ulushi 6 foizni tashkil etdi. Qolgan viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasida islomiy moliyalashtirish xizmatlari 2026-yil I choragida hali qayd etilmagan (5-jadval, 4-rasm).

5-jadval. Islomiy moliyalashtirish xizmatlarining hududlar bo'yicha taqsimoti, 2026-yil I chorak¹⁵


Hudud	Hajm, mlrd so'm	Ulush, %
Toshkent shahri	10,6	94
Namangan viloyati	0,67	6
Boshqa hududlar	0,0	0
Jami	11,27	100

13 Manba: muallif ishlanmasi

14 Manba: muallif ishlanmasi

15 Manba: muallif ishlanmasi

4-rasm. Islomiy moliyalashtirish xizmatlarining mijozlar toifalari va hududlar kesimidagi taqsimoti, 2026-yil I chorak




4-rasm. Islomiy moliyalashtirish xizmatlarining mijozlar toifalari va hududlar kesimidagi taqsimoti, 2026-yil I chorak¹⁶

Mijozlar tarkibi shuni ko'rsatadiki, islomiy moliyalashtirish xizmatlarining 74 foizi tadbirkorlik subyektlariga, 26 foizi esa jismoniy shaxslarga to'g'ri kelmoqda. Bu, bir tomondan, "Murobaha" mahsulotining tovar-moddiy boyliklarni moliyalashtirishda biznes ehtiyojlariga samarali yo'naltirilganligini ko'rsatadi, ikkinchi tomondan, aholi segmentidagi yuqori qiziqish va talab (BMTTD ma'lumotlariga ko'ra, aholining 68 foizi) ushbu xizmatlarni yanada kengaytirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi. Hududiy tahlil ham bozorning jadal rivojlanish salohiyatini namoyon etadi: bozorning 94 foizi poytaxt shahriga to'g'ri kelayotgan bo'lsa, qolgan 13 ta hudud (12 ta viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi)da ham xizmatlarni kengaytirish va qamrovni oshirish uchun salmoqli imkoniyatlar mavjud. Bu islomiy moliyalashtirish xizmatlarini hududiy jihatdan yanada keng rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha katta istiqbollar mavjudligini ko'rsatadi.

Markaziy bankning mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning moliyaviy holati bo'yicha sharhiga ko'ra, 2025-yil yanvar-sentyabr oylarida mikromoliya tashkilotlari tomonidan jami 8,6 mlrd so'mlik "Murobaha", "Islomiy ijara" va "Muzoraba" xizmatlari ko'rsatilgan, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14 martaga oshganini bildiradi (mikromoliya tashkilotlariga islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatishga 2024-yil iyul oyida ruxsat etilgan edi). Bu ko'rsatkich 2026-yil I chorak uchun yuqorida keltirilgan 11,2 mlrd so'mlik hajm bilan birgalikda islomiy moliyalashtirish bozorining 2024-yil ikkinchi yarmidan boshlab barqaror va tezlashuvchi sur'atlarda o'sib borayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan bir qatorda, mikromoliya tashkilotlari sektorida umumiy raqamlashtirish darajasi ham sezilarli darajada oshdi: 2025-yil yanvar-sentyabr oylarida mikromoliya tashkilotlari tomonidan ajratilgan kreditlarda onlayn kreditlar ulushi 69 foizga yetdi (2024-yilning mos davrida 43 foiz edi, 5-rasm). Onlayn kreditlash hajmining keskin oshishi, asosan, jismoniy shaxslar tomonidan "Uzum Market" elektron platformasi, "Uzum Tezkor" yetkazib berish xizmati va "Uzum Nasiya"ga ulangan boshqa savdo shahobchalaridan tovar-moddiy boyliklar sotib olishda, shuningdek, "Tezkoin" (9,5 trln so'm), "Shaffof-Moliya" (3,4 trln so'm) va "Peyleyter" (100 mlrd so'm) mikromoliya tashkilotlari tomonidan onlayn kreditlar ajratilishi bilan izohlanadi (5-rasm).

5-rasm. Mikromoliya tashkilotlari tomonidan ajratilgan kreditlarda onlayn kreditlar ulushi dinamikasi



5-rasm. Mikromoliya tashkilotlari tomonidan ajratilgan kreditlarda onlayn kreditlar ulushi dinamikasi (2024 va 2025-yil yanvar-sentyabr)¹⁷

16 Manba: muallif ishlanmasi
17 Manba: muallif ishlanmasi



Mikromoliya tashkilotlari sektoridagi muammoli kredit (NPL) ko'rsatkichlari ham e'tiborga loyiq: 2025-yil 1-oktyabr holatiga NPL qoldig'i 380 mlrd so'm yoki sektor kredit portfelining 4,1 foizini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 196 mlrd so'mga (1,7 foiz bandga) oshgan. Bunda muammoli kreditlarning 64 foizi ikkita tashkilot — "Tezkoin" (107 mlrd so'm) va "Shaffof-Moliya" (138 mlrd so'm) hissasiga to'g'ri kelgan. Garchi bu ko'rsatkichlar bevosita islomiy moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lmasa-da, ular sektordagi umumiy tavakkalchilik muhitini aks ettiradi va "Muzoraba" hamda "Mushoraka" kabi foyda-zararni taqsimlashga asoslangan islomiy mahsulotlar uchun tavakkalchilikni boshqarish tizimlarining ahamiyatini ko'rsatadi. Chunki bunday mahsulotlarda an'anaviy kredit tavakkalchiligiga qo'shimcha ravishda biznes tavakkalchiligi (business risk) ham moliyalashtiruvchi tashkilot zimmasiga o'tadi. Shu bilan birga, onlayn kreditlash ulushining 43 foizdan 69 foizgacha o'sishi islomiy moliyalashtirish mahsulotlarini ham raqamli kanallar orqali (masalan, onlayn "Murobaha") taklif qilish uchun tayyor infratuzilma allaqachon shakllanganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2024–2026-yillar mobaynida O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish xizmatlari nazariy-konseptual bosqichdan amaliy faoliyat bosqichiga o'tdi. 2026-yil I choragida mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirish xizmatlari hajmi 11,2 mlrd so'mga yetib, bir yil ichida qariyb 8 marta o'sdi, mahsulotlar tarkibi esa "Islomiy ijara" bo'yicha 300 martalik o'sish hisobiga sezilarli darajada diversifikatsiyalashdi. Shu bilan birga, bozor yuqori darajada kontsentratsiyalangan (HHI \approx 6014) va hududiy jihatdan nomutanosib (94 foizi Toshkent shahriga to'g'ri keladi) bo'lib qolmoqda. 2026-yil 27-martda imzolangan va 2026-yil 28-iyundan kuchga kiruvchi "Islomiy bank faoliyatini joriy etish to'g'risida"gi Qonun esa mamlakat moliya tizimida tubdan yangi institutsional bosqichni boshlab beradi, biroq xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, qonunning muvaffaqiyati uning amalga oshirilish sifati, institutsional infratuzilma va kadrlar tayyorgarligi bilan belgilanadi.

O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish bozori dastlabki rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, yuqori o'sish sur'atlari va izchil huquqiy islohotlar ushbu segmentning kelajakda mamlakat moliya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanishi uchun real asos yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-765-son Qonun // URL: <https://lex.uz/docs/-5972411>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6591947>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-364-son qarori. // URL: <https://lex.uz/docs/-6658627>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-132-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7089547>
5. O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonunni // URL: <https://lex.uz/docs/-8099403>
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Ko'rsatilgan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar tendensiyasi. Qisqa tavsif, 2026-yil I chorak. - cbu.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning moliyaviy holati sharhi, 2025-yil yanvar-sentyabr. - cbu.uz.
8. Islamic Financial Services Board. Islamic Financial Services Industry Stability Report 2025. - Kuala Lumpur, 2025.
9. Iqbal Z., Mirakhor A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. - John Wiley&Sons.
10. O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etish jarayoniga oid 2025-2026-yillardagi rasmiy axborot materiallari. - spot.uz, gazeta.uz, kun.uz, uba.uz.
11. Chapra M.U. Islam and the Economic Challenge. Leicester: The Islamic Foundation, 1992. - 480 p.
12. Baydaulet E. Islomiy moliya asoslari. Toshkent: "ICRD Islamic Finance and Business", 2021. - 5-qism: O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishning bugungi holati va istiqbollari.
13. Соборов А. O'zbekistonda Islom bank ishini joriy qilish // Scientific Journal of "International Finance & Accounting". 2022. - Issue 3.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>